

**BURJ XALIFA BINOSI HAQIDA BIZ BILGAN VA
BILMAGAN HAQIQATLAR**

Baxriddinova Oltinoy Bobosher qizi

SamDAQU Arxitektura fakulteti 101-AYR va R talabasi

Rahbar: Suvonov Obidjon Shukurullayevich

SamDAQU "Muhandislik grafikasi va kompyuterda loyihalash" kafedra mudiri

Annotatsiya

Ushbu maqolada Birlashgan Arab Amirliklarida joylashgan dunyodagi eng baland inshoot Burj Xalifa haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Uning qurilish asoslari, qo'llanilgan konstruksiyaviy elementlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek bino haqida ko'pchilik bilmagan qiziqarli ma'lumotlar ham ushbu maqoladan joy olgan. Bir qarashda insonni hayratga sola oladigan "Dunyoning eng baland binosi" Burj Xalifaning qurilishidan asosiy maqsad esa mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda barcha turdagi kerakli asbob-uskunalardan tortib kundalik ehtiyojlar uchun zarur bo'luvchi homashyolargacha, xizmat ko'rsatish va servis ofislarigacha bo'lgan yirik hududni bir yerda jamlagan kompleks majmua bo'ldi.

Kalit so'zlar: BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) Burj Xalifa, turizm, gastranamik turizm, konstruksiya, 829,8 (828), kuzatuv maydonchasi, suv sarfi, muhandislik, yong'in xavfsizligi choralari, savdo komplekslari, 3D animatsiya.

Annotation

This article contains information about Burj Khalifa, the tallest building in the world, located in the United Arab Emirates. It provides information about the foundations of its construction, the constitutional elements used. Also, interesting information about the building that many people do not know is included in this article. The main goal of the construction of the tallest building, Burj Khalifa, was the development of the tourism sector in the country, as well as a complex complex that gathered a large area in one place, from all kinds of necessary equipment to raw materials necessary for daily needs, to service and service offices.

Keywords: UAE (United Arab Emirates) Burj Khalifa, tourism, gastronomic tourism, construction, 829,8 (828), observation deck, water consumption, engineering, fire safety measures, shopping complexes, 3D animation.

Burj Xalifa, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Dubay shahrida bunyod etilgan hozirgi kunda ham "Dunyoning eng baland inshooti" nomini o'zida saqlab qolgan binodir. Ushbu binoni qurish ishlariga 2004 yil 21-sentabr kuni ilk tamal toshi qo'yildi va 5 yil maboynida qurilish ishlari olib borildi. Ushbu jarayonda ishtirok etgan muhandis-ustalar tajribasi hamda puxta o'ylangan reja asosida har hafta qurilish ishlari 2 qavatga ko'tarilib bordi. Lekin qurilish ishlariga asosiy to'siq bo'luvchi omil bu

shamol edi, kuchli shamol bino konstruksiyasini yo'qqa chiqarishi mumkin edi. Ammo loyihaning qurilish ishlariga boshchilik qilgan bosh arxitektor Adrian Smit bu muammo uchun ham yechim topdi. U binoning assimetrik tuzilishi uchun mos konstruksiya ishlab chiqdi va bu binoning shamol qarshiligiga ideal tarzda javob bera oldi. Qurilish ishlari boshlanishi uchun ko'plab fermalar pul tikish istagi bilan chiqdi, ular orasida mashhur "Samsung" (maishiy texnika vositalari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kompaniya) pudratchilik ishlarini o'z bo'yniga oldi. Qiziqarli va juda ko'pchilikka noma'lum bo'lgan faktlardan yana biri Burj Xalifa bunosining dastlabki loyiha taklifi 170-180 qavatni tashkil qilar edi, ammo marketologlar fikricha binoning bu darajada yuqori bo'lishi yuqori qavatlardagi savdo xizmat ko'rsatish nuqtalarini yirik narxlarda sotishni talab qilar edi. Bu ish esa imkonsizligini bilishdi va tavakkal qilishdan cho'chib binoning so'ngi taklifini 160 qavatdan yuqori bo'lishini mo'ljallash taklifini berishdi, bu esa komissiya tomonidan tasdiqlanishi bilan bino qurishi yuqorida ta'kidlanganidek haftasiga 2 qavatgacha hududni qurish imkonini beradi.

Qurilish ishlari o'z yakuniga yetishiga esa umumiy hisobda uzil kesil 5 yil ketdi. Binoning qurilish ishlari jadal sur'atlarda borayotgan bir davrda qurilish ishlari to'satdan to'xtab qoldi, bunga asosiy sabab esa moliyaviy yetishmovchilik bo'ldi. Bu loyihaga qiziqib qolgan Xalifa ham qiziqish bildirdi va qolgan moliyaviy tomonlarini o'z zimmasiga oldi. Loyihaning umumiy qiymati 1,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bino atrofida Dubay shahrida eng yirik bo'lgan park zonalaridan biri qurildi. Uning umumiy maydoni 11 grektarni tashkil qildi va atrofga qurg'oqchil va issiq havoga chidamli bo'lgan o'simlik turlari bilan boyitildi. Ayni shu kabi yashil makon loyihalaridan biri Burj Xalifa binosining yuqori qavatlaridan birida ham tashkil etildi (Ushbu hudud binoning asosiy konstruksiyasidan ajramagan holda tashkil etildi va bu hududdan turib butun Dubay shahrining bor go'zalligini to'laligicha kuzatish mumkin edi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan bu bo'limga kirishga 13 yoshdan katta bo'lganlargagina ruxsat etildi).



Binoning yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun esa maxsus liftga murojat qilishingiz lozim bo'ladi, ushbu liftlarga bir vaqtning o'zida 15 tagacha sayyohni sig'dira olish imkoniga ega bo'lgan lift kabinetlari orqali ko'tarilish mumkin bo'lgan. 3D animatsiyalar orqali siz bir necha daqiqa ichida 2

funksiyani bajarishingiz mumkin bo'ladi: biri yuqoriga tezlik bilan ko'tarilish bo'lsa,

boshqasi ushbu bir necha daqiqa ichida Burj Xalifaning qurilish tarixi bilan qisqa metrajli animatsion videolar orqali tanish bo'lishingiz mumkin.

Yuqoriga ko'tarilish maboynda bir muddat quloqlaringiz tashqi tovushlarni eshitishdan cheklangandek go'yo (buning birdan bir sababi esa yuqorida bosimning kuchliligidadir). Tashrif buyurish uchun esa chiptalar 95-125 AED ni tashkil etadi. Yuqori qavatda joylashgan kuzatuv maydonchasida esa sizga butun shahar qiyofasini kaftdek namoyon etishni hozirlab turgan yirik teleskoplar kutadi. Ushbu qurilma orqali siz atrofda joylashgan barcha inshootlar, 4 qavatdan iborat qilib qurilgan yuqori dizayn namunasi bo'lmish avtomobil yo'llari, yirik shahar ko'chalari va sun'iy ko'lni ko'rishingiz mumkin.

Adabiyotlar

1. <https://emirates.estate/ru/area-guides/burj-khalifa-area-guide/>
2. <https://hotel-all.ru/uz/novosti/skolko-etazhei-v-dubaiskoi-bashne-eto-interesno-burdzh-halifa/>
3. Ibraimovna, M. F. (2023). Palaces of the Timurid Period of the middle Ages of Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 24-28.
4. Ibraimovna, M. F. (2022). Palaces In The Historical Cities Of Uzbekistan Formation. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 12, 15-18.
5. Ibraimovna, M. F. (2023). Analytical Research Work on the Palaces of the Timurids in the Medieval Period of Uzbekistan. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(3), 7-10.
6. Firuza Ibraimovna, M.. (2023). Scientific and Natural Study of the Architecture of the Khiva Garden-Palaces, Development of Recommendations for their Use for Modern Tourism Purposes. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 10-13.
7. Ibraimovna M. F. (2023). Analysis of Various Roofs and Roofs. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(3), 33-39.
8. Жураев, Т. Х., Сувонов, О. Ш., & Сапаров, Х. Р. (2020). Разработка концепции силлабуса для учебного процесса геометро-графических дисциплин. *Образование и проблемы развития общества*, (3 (12)), 32-39.
9. Tuxtashov, B., & Obidjon, S. (2022). The Importance of Using Interactive Methods in Training Sessions in General Technical Disciplines in Improving the Effectiveness of Training. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(12), 17-20.
10. Shukurullayevich, S. O. (2021). The intersection of the surface of the engineering building with the surface of the earth. *World Economics and Finance Bulletin*, 1(1), 17-19.

11. Shukurullaevich, S. O. (2022). Geometric methods used in the construction of architectural forms. *Journal of Architectural Design*, 4, 12-20.
12. Vohidov, B., Vohidov, A. B., & Sh, S. O. (2022). From Parts of Second-Order Turnable Areas Formed Coating. *Miasto Przyszłości*, 24, 496-502.
13. Sh, S. O., & Abdumomononov, M. (2023). Problems of Creating Two and Three-Dimensional Drawings in the Programs of the Discipline “Computer Graphics” Intended for Teaching the Discipline “Drawing Geometry and Engineering Graphics” in the Direction of Construction and Vocational Education. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(3), 27-30.
14. Suvonov, O. (2023). Some Issues of Division of Spatial Shells of Coatings into Prefabricated Structural Elements. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(4), 13-16.
15. Shukurullayevich, S. O., Sulaymanovich, M. F., & ShamshidinYalgashevich, K. (2021). SPECIALIZED MOBILE GAMES IN PRACTICAL EXERCISES ON THE NATIONAL FIGHT OF KURASH. *World Bulletin of Management and Law*, 3, 51-52.
16. Сувонов, О. (2023). ОЦЕНКА ЧИСЛА МНОГОГРАННИКОВ С РАВНЫМИ РЕБРАМИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(4), 95-97.
17. Nemat, A. (2023). Metric Problems in the Design of Coating Shells. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(4), 32-35.